



AYOL VA QIZLAR O'RTASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Musiqa
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Muxtorova Gulbahor Usmonjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar va qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi, ularning iqtisodiy faolligini oshirishdagi to'siqlar hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning biznesda ishtirokini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahliliy tarzda yoritilgan. Maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar ham o'rganilib, samarali yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, gender tenglik, innovatsiya, bandlik, iqtisodiy faollik, startap, ijtimoiy himoya.

Abstract: This article analyzes the current level of entrepreneurship among women and girls, the main barriers affecting their economic activity, and the existing challenges in the field. It also examines the ongoing reforms in Uzbekistan aimed at ensuring gender equality, supporting women, and expanding their participation in business. The article studies international experiences and proposes practical solutions for developing female entrepreneurship.

Keywords: female entrepreneurship, gender equality, innovation, employment, economic activity, startup, social protection.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-



quvvatlamasdan turib, mamlakat taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi." Ayollar iqtisodiy hayotda faol bo'lishi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va oilalarning farovonligini ta'minlaydi. Shu bois so'nggi yillarda ayollar uchun maxsus dasturlar, grantlar, imtiyozli kreditlar, o'quv kurslari joriy etilib, ularning biznesda o'z o'rnini topishiga sharoit yaratilmoqda.

Ayollar tadbirkorligi rivojining hozirgi holati: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 28 foizi ayollar tomonidan boshqarilmoqda. Eng ko'p ulush xizmat ko'rsatish, ta'lim, tikuvchilik, go'zallik va ovqatlanish sohalarida kuzatiladi. Shu bilan birga, ayollar biznesida innovatsion yo'nalishlar (IT, elektron savdo, ekologik startaplar) hali yetarlicha rivojlanmagan.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar quyidagilardan iborat.

- Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:
- Moliyaviy resurslarga cheklangan kirish;
- Tadbirkorlik ko'nikmalarining yetishmasligi;
- Mahalliy darajadagi byurokratik to'siqlar;
- Ijtimoiy stereotiplar va gender tafovutlar;
- Oila va ish o'rtasidagi muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar.

Bu omillar natijasida ko'plab ayollar o'z biznes g'oyalarini amalga oshirish imkoniyatidan chetda qolmoqda.

Davlat siyosati va huquqiy asoslar, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonuni (2021-yil) hamda "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish agentligi" faoliyati ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda muhim o'rin tutadi. "Har bir ayol -tadbirkor", "Ayollar daftari" kabi dasturlar doirasida minglab ayollar o'z biznesini yo'lga



qo‘ymoqda. 2023-yilda 200 mingdan ortiq ayol imtiyozli kredit olgan, 30 ming nafardan ortig‘i yangi ish o‘rinlari yaratgan. Aynan ayol va qizlar o‘rtasida tadbirkorlikna rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajriba va tahlillar shuni ko‘rsatadiki Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda Norvegiya, Kanada, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda maxsus inkubator markazlari, mentorlik dasturlari va davlat subsidiyalari samarali natija bergan. Bunday tajribalarni O‘zbekistonda ham tatbiq etish, ayollar uchun “startap akseleratorlari” va “ayollar innovatsion klublari”ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Yechim va takliflar: Ayollar uchun biznes ta’limini kengaytirish va masofaviy treninglarni yo‘lga qo‘yish, Imtiyozli mikrokreditlar tizimini soddalashtirish, Mahalliy darajada “Ayol tadbirkor markazlari”ni tashkil etish, Ayollar ishtirokidagi IT-startaplarni rag‘batlantirish, Ayollar muvaffaqiyatini targ‘ib qiluvchi OAV loyihalarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – bu nafaqat iqtisodiy jarayon, balki ijtimoiy adolat va gender tengligini ta’minlashning muhim yo‘lidir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar natijasida ayollar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etmoqda. Shu bilan birga, tizimli yondashuv, ta’lim, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalarni joriy etish orqali ushbu jarayonni yanada tezlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.



4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2024-yil 20-dekabr.
5. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish agentligi hisobotlari, 2023–2024-yillar.
6. World Bank. “Women, Business and the Law 2023”. – Washington: World Bank Group, 2023.